

**Markaz direktori M.Xolmuxamedovning “O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o’quvchilarni jinoyatchilik va huquqbuzarliklardan saqlash va chetga chiqib ketishlarining oldini olish borasida qilinayotgan amaliy ishlar haqida”gi**

**MA’RUZASI**

*Yoshlar ijod saroyi*

*18 noyabr, soat 18.00*

**Assalomu alaykum, hurmatli videoselektor ishtirokchilari!**

Xabaringiz bor, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyati, ayniqsa, o’quvchilar o’rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning davomati masalalariga Muhtaram Prezidentimiz har doim alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Barchamiz bevosita kuzatib bormoqdamiz, davlatimiz rahbari deyarli barcha chiqishlarida, nufuzli Xalqaro anjumanlarda, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti cammitida yoshlar ma’naviyati, tarbiyasi borasida qilinishi shart bo’lgan vazifalarni aniq ko’rsatib bermoqdalar.

Ayniqsa, joriy yilning oktyabr oyida Sochida o’tkazilgan MDHga a’zo davlatlar rahbarlari sammitida o’sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi haqida qayg’urib, shu mavzuda yurtimizda Xalqaro konferensiya tashkil etish taklifi bilan chiqdilar.

Darhaqiqat, hukumatimiz tomonidan **jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish**, zo’ravonlik va yovuzlikka qarshi ezgulik mafkurasini targ’ib etish masalasi **kun tartibiga qo’yilgan**.

Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida **2017 yil 2 avgustda hamda 16 avgustda, kuni kecha - 15 noyabr kuni** o’tkazilgan videoselektorlarda ham yoshlar tarbiyasini umumxalq ishiga aylantirish, keng jamoatchilikni jalb etish, **yoshlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishining oldini olish** borasidagi ustivor vazifalarimizni belgilab berdilar.

Bugun aynan shu maqsadda “Mahalla” va Ichki ishlar profilaktika noziri uchun o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalaridan jami **557 ta** alohida xonalar ajratildi.

Ta’lim muassasalarida **o’quvchilarning davomatini 100 ta’minlash bo’yicha mahalla raislari, hududiy profilaktika inspektorlari, Yoshlar ittifoqining boshlang’ich tashkiloti yetakchilariga mas’uliyati aniq belgilab qo’yildi**.

**Davlatimiz rahbarining mazkur topshiriqlari** ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalla”, Ichki ishlar, Xalq ta’limi, YOshlar ittifoqi va Markazning Qo’shma qarorlari imzolanib, ijro uchun yetkazildi.

Qo’shma qaror bilan **darsga muntazam kelmaydigan va ko’p dars qoldiradigan o’quvchilar bilan ishlashini tashkil qilish bo’yicha YO’RIQNOMA**” ishlab chiqildi.

**JORIY HOLAT:**

O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida jami **1418 ta** ta'lim muassasalarida **1 mln. 145 ming** o'quvchi-yoshlar tahsil olmoqda.

**2017 yilning 9 oyida** ta'limi muassasalarida jami **875 ta** (2016 yilning shu davrida 993 ta) jinoyat sodir etilgan.

Jumladan, Toshkent shahrida **133 nafar**, Farg'ona viloyatida **131 nafar**, Toshkent viloyatida **126 nafar**, Samarqandda **69 nafar**, Namanganda **61 nafar**, Qashqadaryoda **48 nafar**, Surxondaryoda **41 nafar**, Andijonda **40 nafar**, Buxoroda **37 nafar**, Qoraqalpog'iston Respublikasida **27 nafar**, Xorazmda **22 nafar**, Jizzax va Sirdaryo **18 nafardan** va Navoiyda **9 nafar**.

O'tgan **9 oyda 33 ming 642 nafar** (2016 yilda 31 ming 49 nafar) o'quvchilar IIB xizmat xonalariga keltirilgan (2 ming 593 nafarga oshgan).

Bu ko'rsatkich Sirdaryo (1197/1312), Buxoro (2162/2193), Navoiy (1284/1291), Farg'ona (2503/2533), Surxondaryo (1184/1186), Qashqadaryo (1439/1590), Samarqand (3171/6204), Xorazm (1928/2155) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1351/1460) oshgan.

**2 ming 638 nafar** (2016 yilda 3538) o'quvchilar IIB profilaktik ro'yxatiga olingan. **3 ming 795 nafar** (2016 yilda 4374) o'quvchilar ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga olib kelingan.

Bu ko'rsatkich Sirdaryo (162/194), Xorazm (60/85) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1/23) oshgan.

Tizimda joriy 9 oyda o'tgan yilga nisbatan jinoyatchilik **118 taga** kamaygan bo'lsada, **Buxoro (32/37) va Surxondaryo (36/41)da 5 taga oshgan.**

Bu davrda tizimda jami **1104 nafar o'quvchilarning xorijga chiqib ketish holatlari kuzatildi.**

Jumladan, Samarqandda **221 nafar**, Xorazmda **218 ta**, Buxoroda **120 nafar**, Andijonda **118 nafar**, Qashqadaryoda **103**, Toshkent viloyatida **95 nafar**, Namanganda **49**, Farg'onada **37**, Toshkent shahrida **32**, Qoraqalpog'iston R.da **23**, Navoiyda **21**, Jizzaxda **19**, Sirdaryo **18**, Surxondaryoda **16 nafar**.

**9 oy mobaynida GIYoHVANDLIK** bilan bog'liq 7 ta jinoyat sodir etildi. (O'tgan yilning shu davriga nisbatan **6 taga** (7/13) kamaygan.)

**184 nafar** o'quvchilar tomonidan o'z joniga qasd qilish holatlari sodir etilgan. 2016 yilga nisbatan (192) **8 taga** kamaydi.

**Eng og'ir hududlar sifatida** (5 yilda) Toshkent viloyati (156), Namangan (125), Samarqand (96), Qashqadaryo (93), Farg'ona va Surxondaryo (82 tadan). viloyatlari qayd etilgan.

2017 yilning oktyabr oyi holatiga tizimda jami turmushga chiqqan qizlar soni **921 nafarni tashkil etadi**. Shundan 1-bosqichda **12 nafar**, 2-bosqichda **52 nafar** va 3-bosqichda **857 nafar**.

Turmush qurganlarning **10 nafari 16 yosh**, **34 nafari 17 yosh**, **877 nafari 18 yoshni** tashkil etadi. **32 nafari** farzandli bo'lgan.

Shundan **31 nafar** o'quvchi-qizlar **17 yoshga to'lmasdan** erta turmush qurgan. Eng og'ir hududlar sifatida Andijon (164), Samarqand va Farg'ona (107 tadan), Qoraqalpog'iston Respublikasi (96) va Buxoro (87 nafar)

**AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR, KO'RILGAN CHORALAR:**

Albatta, har bir jinoyatchilik yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlanib, **“favqulodda holat”** sifatida to‘liq tahlil etish va tafsilotini bilish (*qachon, qayerda, qanday holatda, vaqti, kelib chiqish sababi va boshqa*) orqali jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘luvchi omillar aniqlanib, Pedagogik kengashlarda jiddiy muhokama qilinib kelinmoqda.

Asosiy e‘tibor huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan.

Shuning uchun ta‘lim muassasalarida **“Dinshunoslik” fani, “Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari”** maxsus kursi, **“O‘zbekiston tarixi”, “Huquqshunoslik”, “Ma‘naviyat asoslari”, “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Shaxs va jamiyat”, “Hayot faoliyati xavfsizligi”** fanlari doirasida diniy ekstremistik g‘oyalar va terrorchilikka qarshi kurash, jinoyatchiliklarning oldini olishga qaratilgan mavzular sifatli o‘qitilishi nazoratga olingan.

**Oyning birinchi jumasi** - “Teatr va muzeylar, tarixiy obidalar, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy muassasalarga sayohat va tashriflar kuni”, **Ikkinchi jumasi** - “An‘anaviy sport musobaqalari kuni”, **Uchinchi jumasi** - “Davlat arboblari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a‘zolari, mahalliy deputatlar, shoir va yozuvchilar, san‘atkorlar, ziyolilar bilan uchrashuvlar kuni”; **To‘rtinchi jumasi** - “Diniy ekstremizm va missionerlik, odam savdosi va giyohvandlikka qarshi kurashga oid hujjatli filmlar namoyishi kuni” deb belgilab qo‘yildi.

O‘z navbatida mazkur holatlarning kelib chiqishiga bevosita javobgar bo‘lgan rahbar xodimlarga qat‘iy intizomiy jazo choralari ko‘rilyapti.

2017 yilning o‘tgan davrida o‘quvchilar o‘rtasida ma‘naviy-tarbiyaviy, profilaktik, pedagogik-psixologik ishlarni susaytirib yuborganligi uchun jami Respublika bo‘yicha **85 nafar** psixologlar, **137 nafar** direktorlar, **387 nafar** direktor o‘rinbosarlariga va **3471 nafar** guruh rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanildi.

Huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda o‘quvchilarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaganligi, **natijada jinoyat sodir etishiga yo‘l ochib berganligi uchun 6 ming 187 nafar** ota-onalar Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasiga asosan jarimaga tortildi.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida Markazining **2017 yil 2 noyabrdagi 15/XFU-sonli buyrug‘i chiqarilib, ijroga qaratilgan.**

Shuningdek, **2610 nafar** o‘quvchi bo‘yicha huquq-tartibot idoralariga, **2526 nafar** o‘quvchi bo‘yicha voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga va **8353 nafar** o‘quvchilarni ta‘limga qaytarish bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlariga manzilli murojaatlar yo‘llanib, ularni birgalikda darslarga qaytarish choralari ko‘rilyapti.

**AMALGA OSHIRILISHI LOZIM BO‘LGAN ISHLAR:**

Muhtaram Prezidentimiz **“Hamma balo ilmsizlikdan, savodsizlikdan, yaxshi bilan yomoni anglamaslikdan kelib chiqadi”** deb ko‘p takrorlaydilar.

Shuning uchun **birinchi navbatda**, farzandlarimizni kitob o‘qishga ommaviy jalb etishimiz lozim.

Bolaga kitob o‘qishga rag‘bat uyg‘otish – biz pedagoglarning burchimizdir. Shuning uchun barcha fanlar doirasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, uyga vazifa berish, ayniqsa, tarix, ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, huquqshunoslik, geografiya, milliy istiqlol g‘oyasi, ma‘naviyat asoslari kabi fanlardan o‘quvchining bilimni aynan qancha kitob o‘qiganiga qarab baholash tizimini joriy etish lozim.

**Ikkinchidan**, ta‘lim muassasalarida ijtimoiy-xavfli guruhga kiruvchi o‘quvchilar o‘z vaqtida aniqlab olinishi lozim va ular bilan individual ishlashni tashkil etish talab etiladi.

Chunki aynan shu toifa o‘quvchilar bilan o‘z vaqtida alohida ish olib borilmaganligi sababli oxirgi paytlarda noxush hodisalarning yuz berishiga yo‘l qo‘yildi.

**Uchinchidan**, ta‘lim muassasalari psixologik xizmatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, jinoyatga moyil o‘quvchilarning xulq-atvoridagi og‘ishlar o‘z vaqtida bartaraf etish masalaga malakali pedago va psixologlarimizni keng jalb etishimiz talab etiladi.

**To‘rtinchidan**, bundan buyon ta‘lim muassasasiga kirish qismida qat‘iy nazorat o‘rnatish talab etiladi. Chunki huquq tartibot organlari tomonidan o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlari bilan o‘ta xavfli sovuq qurollar olib kelayotgani bo‘yicha aniq ma‘lumotlar bor.

Natijada bu holat o‘tish davrida bo‘lgan, qiziqqon yoshlarning og‘ir jinoyat sodir etib qo‘yishiga sabab bo‘lmoqda.

**Beshinchidan**, farzandlarimizni bekor, qarovsiz qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun turli umumprofilaktik tadbirlar, to‘garaklar faoliyati, sport seksiyalari, ko‘rik-tanlovlarga yana ko‘proq jalb etishimiz talab etiladi.

Misol uchun shu kunlarda ta‘lim muassasalarida o‘tkazilayotgan “Konstitutsiya – baxtimiz poydevori” ko‘rik-tanlovining sifati va saviyasiga, qamrov darajasiga alohida e‘tibor qaratishlaringizni so‘raymiz.

Ko‘rik-tanlovning Respublika bosqichi 30 noyabr – 2 dekabr kunlari Buxoro viloyatida o‘tkaziladi va biz g‘oliblarni munosib taqdirlash choralarini ko‘ramiz.